

ONA TILI TA'LIMIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASINI YARATISH YO'LIDA: MUAMMO VA YECHIMLAR

Hamroyev G'ofir, Toshkent amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori

ON THE WAY TO CREATING A MODERN METHODOLOGY FOR TEACHING IN NATIVE LANGUAGE EDUCATION : PROBLEMS AND SOLUTIONS

*Hamroev Gafir, Tashkent University of Applied Sciences
researcher-Professor, Doctor of Pedagogical Sciences*

НА ПУТИ К СОЗДАНИЮ СОВРЕМЕННОЙ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

*Хамроев Гофир, Ташкентский университет прикладных наук,
исследователь-профессор, доктор педагогических наук*



<https://orcid.org/0009-0009-6650-5611>

e-mail:

hamroyevgofirr@mail.com

Annotasiya: Mazkur maqolada ona tili ta'limida o'qitishning zamoanviy metodikasini yaratish bo'yicha mamlakatda olib borilayotgan, rejalashtirilgan ishlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ona tili o'qitishni takomillashtirishda qaysi jihatlarga e'tibor qaratish zarurligi, bunda o'quv topshiriqlarining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ona tili ta'limi, yangi o'qitish metodikasi, ona tili ta'limi mazmuni, maqsadi, o'quv topshiriqlari.

Abstract: This article reflects on the planned work in the country to create a modern teaching methodology in mother tongue education.

Key words: native language education, new teaching methodology, content, purpose, educational tasks of native language education.

Аннотация: В данной статье отражена планируемая в стране работа по созданию современной методики преподавания на родном языке.

Ключевые слова: обучение родному языку, новая методика обучения, содержание, цель, образовательные задачи обучения родному языку.

KIRISH. Umumta'lim maktabida o'n bir yil ona tilidan dars mashg'ulotlari olib boriladi, ammo tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'z ona tilini yaxshi bilmaydi. O'zbekcha so'zlarni tanimaydi. O'z so'zlarimizning anglatadigan ma'nolari, etimologiyasini bilmaydi. Maktabdanoq ona tilining ahamiyatini o'quvchiga anglata olmaymiz. Shu sababli u bitirgandan so'ng o'z hayotida o'zbekcha so'zlarni qo'llamaydi, tilni qadrlamaydi. Hozirda ham fanlar uchun qo'yilayotgan ushbu talablar ona

tili ta'limiga ham taalluqli. Maktab ta'limida o'quvchilarga gap tahlili, so'z yasash usullarini emas, til birliklaridan nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri va o'rinli foydalana olishni o'rgatish kerak. Davr isbotlagan bu haqiqat bugungi kunda ona tili ta'limiga nisbatan yondashuvni o'zgartish, o'qitish metodikasini tubdan yangilashni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Abu Nasr Forobiy: "Qanday qilib ta'lim berish, ta'lim olish, fikrni

qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berishga kelganimizda, bu borada bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman”, degan edi. Til nazariyasining asoschisi bo‘lgan V.Gumboldt XIX asrdayoq “Til – millat ruhi” deb aytgan edi [2,301-302-b]. Ushbu fikr XXI asrda polyak pedagogi Yanush Korchak tomonidan quyidagicha davom ettirildi: “Ona tili – bu bola uchun o‘ylab topilgan qoidalar emas, nafas olayotgan havo kabi xalqining ruhi bilan tengdir”. Bolaning ona tilini o‘rganish jarayonida muhim vazifalar amalga oshiriladi: birinchidan, bolaning tug‘ma aqliy qobiliyatni rivojlantirish, ikkinchidan, ona tili xazinalarini ongli egallash; uchinchidan, bolalarga til mantig‘ini o‘rgatish kerak. Bu maqsad va vazifalarga birin-ketin emas, balki baravar erishib borish lozim.

O‘quv topshiriqlarini tuzishga asos bo‘luvchi o‘quv materiallarini tanlash, ta’kidlash kerakki, ona tili ta’limi maqsadini, mazmunini belgilash borasida mustaqillikning dastlabki yillarida tizimli tadqiqotlar olib borildi.

Ayniqsa, pedagogika fanlari doktori, professor R.Safarovning kommunikativ ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish ona tili ta’limining asosiy vazifasi ekanligiga 90-yillardayoq urg‘u bergani, xususan, o‘quv topshiriqlari, shuningdek baholash masalasi, o‘zbek tilining O‘zbekistonda milliy tiklanish sharoitida ham ona tili, ham davlat tili sifatida o‘qitilishi bilan bog‘liq muhim masalalarni tadqiq etganini alohida ta’kidlash lozim.

Demak, bugungi kunning eng muhim masalasi – ona tili ta’limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirishdir. Ona tili orqali o‘quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar shakllanadi. Agar ona tili oddiy o‘quv predmeti emas, qadriyat sifatida o‘qitilsa, o‘quvchilarda o‘z-o‘zidan teran tafakkur va milliy g‘urur shakllanadi. Shunda ona tilini o‘rganishga o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘onadi. Ona tili orqali o‘quvchilar milliy mentalitetni, hayotni, xalqning madaniy merosini o‘rganishlari kerak. Albatta, bu pragmatik xarakterdagi o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish orqali amalga oshadi.

O‘quv topshiriqlari orqali ona tilini o‘qitishga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga doir ishlarni faollashtirish; ona tili o‘qitish uchun ilmiy, metodik, psixologik va pedagogik yordam tizimini rivojlantirish ishlarni takomillashtirish;

etnolingvistikaning so‘nggi yutuqlarini ta’lim jarayoniga jalb qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Agar ona tili mashg‘ulotlarida o‘quv topshiriqlari o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llanilsa, o‘quvchilar ma’lumotlar bilan ishlay olishga topshiriqlar orqali to‘g‘ri yo‘naltirilsa, axborot texnologiyalari asrida manba muammo bo‘lmaydi. Endi bilimdon o‘quvchilar tayyorlash vaqti o‘tdi. Bugungi davrning talabi biluvchi, bilib oluvchi o‘quvchilarni tarbiyalashdir.

Agar o‘quvchiga to‘g‘ri va maqsadli savol berilsa, hayot uchun foydali topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilsa, zarur nutqiy malakalar mashq orqali hosil qildirilsa, ijodiy tafakkur sohiblari yetishib chiqishiga sharoit yaratilgan bo‘ladi.

O‘quv topshiriqlari faqat maktabda emas, maktabdan tashqari oilada, ko‘cha-ko‘yda ham ahamiyatlidir. Ota-onalar ham, mahalladoshlar ham o‘quvchiga savol berganda uning yoshi, intellektual imkoniyati va psixo-fiziologiyasini inobatga olishlari lozim. Bolani kichik yoshdan atrofni kuzatishga, tushunmagan, ilk marta ko‘rgan narsa-hodisalar haqida ma’lumot olishga qaratilgan savollarni berishga o‘rgatish, avvalo, ota-onaning vazifasi. O‘quvchi maktabga qadam qo‘yganida o‘z ona tilida gaplasha oladigan, atrofidagilarning so‘zlarini tushuna oladigan darajada rivojlangan bo‘ladi. Shu bois ona tili ta’limining vazifasi o‘quvchini gapirish va tinglab tushunishga o‘rgatishdan iborat bo‘lmaydi. Til ko‘nikmalarining bu ikki turi bolaga tili chiqqan paytdan boshlab singib bo‘lgani inobatga olinsa, maktabda ona tili ta’limida dastlabki shakllantiriladigan ko‘nikmalar – o‘qish va yozishni o‘rgatish ekanligi ayon bo‘ladi, biroq bu til ta’limining to‘rt muhim unsuri bo‘lgan gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari ustida ishlashni to‘xtatish kerak degani emas. Aksincha, aynan ona tili ta’limi ekanligini ko‘zda tutgan holda o‘quvchida bolaligidan shakllanib bo‘lgan ko‘nikmalarni yanada rivojlantirish, keyingi bosqichga olib chiqishdan iborat.

Nutqiy ko‘nikmalar nutq faoliyatining 4 asosiy turi: o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozuvni egallash orqali yuzaga keladi va o‘quvchilarning ikkinchi tilni o‘rganish davrida olgan bilimlarini amaliy nutqiy faoliyatda sobitqadamlik bilan mustaqil ravishda qo‘llay olish qobiliyati – nutqiy malakani hosil qilishga yordam beradi.

I.A.Zimnyaya ta'rificha, "malaka mashqlar natijasida harakatlarning yuqori mukammallikka erishuvi va nutqiy jarayonlarning avtomatlashuvidir".

Ona tilida o'z-o'zidan, tabiiy ko'nikmalar asosida hosil bo'ladigan ushbu nutqiy jarayon ikkinchi tilni egallashda ancha qiyin kechadi, chunki o'quvchi-talabalar o'zga til leksikasini o'rganar ekanlar, ularda so'z uyg'otadigan assotsiatsiyalar tizimi to'g'risida nutqiy fikrlash malakasi ham shakllanishi kerak. Demak, til sathlarida ikki so'zni bog'lash uchun xizmat qiluvchi so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar, bog'lovchilar, ko'makchilardan boshqa vositalar ham mavjud, nutq o'stirish maqsadida o'rganiladigan grammatik materiallar sirasi shu nuqtani nazardan ham aniqlanishi kerak.

Bugungi kun ona tili ta'limi maktabda o'rgatilishi belgilangan til sathlaridan qat'i nazar, hatto fonetika o'qitishda ham o'quvchining so'z boyligini oshirish, shu orqali o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda mustaqil, ravon, lo'nda va jozibali ifodalay olishiga erishishni talab etadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish, albatta, o'zbek tilining tengsiz xazinasini hisoblangan maxsus leksik boylklarsiz samarali bo'lishi qiyin.

Grammatika masalasi bugun ta'lim oldiga qo'yilgan talablarni yaxshi anglamaslik, grammatika haqida boshqacha tasavvurlarga ega bo'lish oqibatida bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni keltirib chiqarmoqda.

Avvalo, "grammatika" so'zi o'qish va yozishni o'rganmoq degan ma'noni anglatadi. Ammo, bizda tilshunoslikda yaratilgan nazariyalar, qoidalar majmuasi sifatida qaraladi, grammatika deganda, asosan, morfologiya va sintaksis tushuniladi. Maktab o'quvchisiga 6-7-8-9-sinflarda 4 yil davomida morfologiya va sintaksis o'qitiladi, ammo bu ma'lumotlar nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga deyarli xizmat qilmaydi. Undan ko'ra darslik tuzishda ko'p yillardan beri e'tibordan chetda qolib, juda kam soatlarda o'qitib kelinayotgan fonetika, to'g'ri yozish, imlo qoidalari (orfografiya), adabiy talaffuz qoidalari (orfoepiya), tilning lug'at tarkibi (leksika, leksikologiya emas) va tinish belgilari (punktuatsiya) kabi mavzular o'quvchida haqiqatan imloviy savodxonlik, adabiy talaffuz ko'nikmalarini hosil qiladi, so'z boyligini oshiradi.

Grammatik ma'lumotlarni chegaralamaslik, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadini qo'ymaslik oqibatida me'yoridan ortiq nazariy

ma'lumotlar maktab darsliklariga kirib qoldi. Natijada bitiruvchi, yoki birinchi kurs talabasidan jumlaning grammatik tahlil qilib berish so'ralsa u tibbiyot yo'nalishida bo'ladimi, moliya yo'nalishida bo'lishidan qat'i nazar so'z va gaplarni yaxshi tahlil qilib bera oladi, ammo unga gapni murakkab ega, ot-kesim, sifatlovchi, qaratqich aniqlovchi, nomustaqil, mustaqil to'ldiruvchiga ajratishdan o'z kasbi doirasida biror amaliy foyda bo'lmaydi. Ortiqcha grammatizm, ona tili ta'limini hayotdan uzoqlashtiradi. Aslida unga yaxshi shifokor va bank xodimiga kerak bo'ladigan kasbiy muloqot madaniyati o'rgatilishi kerak. Buning uchun maktab ta'limidagi o'quvchilar adabiy talaffuzi ravon, imloviy savodxon, ta'sirli nutq uchun yetarli so'z boyligiga ega bo'lishlari kerak.

XULOSA. Mamlakatimizda chet tillarni o'qitish borasida olib borilayotgan tub islohotlar va erishilgan samarali natijalar uzluksiz ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvning joriy qilinishiga o'quvchi va talabalarning barcha fanlar bo'yicha egallangan bilimlarini amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Буслаев Ф.И. О преподавании отечественного языка. 2-е изд. М., 1867. (переизд.: Л., 1941). – С. 59-63.
2. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. - М., 1984. - С. 301-302.
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
4. Зимняя И.А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. – Москва: МГУ, 1998. –268 с.
5. Сафарова Р. Миллий тикланиш шароитида Ўзбекистон мактабларида она тили таълими назарияси ва амалиёти. Педагогика фанлари доктори илм. даражасини олиш учун ёзилган дисс. –Тошкент, 1995. –242 б.
6. Мухитдинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуksизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш Пед. фан. док. ... дис. – Тошкент, 2011. –347 б.
7. Mengliyev B.va boshqalar.Ona tili.II qism.10-sinflar uchun darslik. – Toshkent, 2020.-5 b.
8. Фуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.